

IMOM TERMIZIYNING “ASH-SHAMOIL AN-NABAVIYYA” ASARINING TAVSIFI

*Asadullayeva Muslima Xayrullo qizi
O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi
“Islomshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi,
Telefon raqami: +998917000649
Ilmiy rahbar: Z.Faxriddinov
O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi
“Islomshunoslik va islam sivilizatsiyasini o‘rganish
ICESCO” kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchisi,
Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Imom Termiziyning hayoti va ilmiy faoliyatlarini hamda “ash-Shamoil an-nabaviyya” asarining yozilishi uslubi va unga sabab bo‘lgan tamoyillar bilan bir qatorda asarning batafsil tavsifi uning tarkibiy qismi yoritilgan. Siyrat hamda hadis ilmidagi zaruriy ma’lumotlarni jamlovchi asar hisoblangan ushbu kitobda bo‘lgan Muhammad payg‘ambarning tashqi ko‘rinishlari, ulug‘ hislatlari, yuksak xulqlari va go‘zal muomalalari batafsil yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: Shamoil, suvrat, siyrat, axloq, fazilat, sahih, sunnat, hadis.

Muqaddas zaminimiz azal-azaldan insoniyat tamadduni, ayniqsa, Islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo‘shtigan ulug‘ mutaffakirlarga beshik bo‘lgan. Xususan, hadisshunoslik ilmi VIII asr va XI asrlarda asosiy va zaruriy ilmlardan biriga aylangan. Bu davrda Sharqning turli mamlakatlaridan bo‘lgan to‘rt yuzdan ortiq muhaddislar shu ilm bilan shug‘ullangan. Zamonamizning buyuk muhaddislari sanalmish Imom Buxoriy (810-870), Imom Muslim (817-875), Imom Dorimiy (789-869), Imom Abu Dovud (817-889) va Ahmad ibn Hanbal (780-855)dek zotlar aynan shu davrda o‘zlarining din uchun, ayniqsa, hadis uchun buyuk xizmatlarini olib borgan edilar. Bu muhaddislar boshlab bergen xayrli ishlarni Imom Termizi (824-892) ham chuqur mas’uliyat va katta idrok bilan davom ettirdi.

Buyuk vatandoshimiz muhaddis olim Imom Abu Iso Termiziy hijriy 209 (824)-yili Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida tavallud topgan. Yoshlik chog‘idanoq ilmga bo‘lgan qiziqishi hamda idrokli va zakovatli bo‘lganligi bois o‘z tengqurlaridan ajralib turgan. Ilmga bu darajada muhabbat ortidan, yosh bo‘lishiga qaramay Termiz, Samarqand, Marv, Buxoro va Movarounnahrning boshqa sharharlarida istiqomat qilib, u yerlardagi muhaddis va diniy ulamolardan fiqh, tafsir, hadis ilmlarida tahsil olgan. Minglab hadislarni yoddan

bilgan buyuk muhaddis va hofiz, Islom huquqini qunt bilan o‘rgangan – faqih va olim bo‘lib o‘zining buyuk xizmatlari bilan islom ravnaqi uchun hissa qo‘sghan¹.

Muallifning yirik asarlaridan biri “Ash-shamoil an-Nabaviyya” (“Payg‘ambarning alohida fazilatlari”)dir. Bu asar ba’zi manbalarda “Ash shamoil Muhammadiyya”, “Ash-shamoil fi shamoil an-nabiy salollohu alayhi vasallam” nomlari bilan ham ataladi. Asar Payg‘ambar alayhissalomning tashqi suratlari, shaxsiy hayotlari, u zotning siyratlari, fazilat va odatlariga oid to‘rt yuz sakkiz hadisi sharifni jamlagan qimmatli asardir. Shu o‘rinda bir manbani aytish kerakki, payg‘ambar alayhissalomning fazilat va odatlari, shaxsiy hayotlari haqidagi hadislarni to‘plash bilan ko‘plab olimlar, muhaddislar shug‘ullangan edilar. Lekin Termiziyning bu asarida o‘zgacha fazilat va himmat bilan yozilgan bo‘lib, u zot Payg‘ambar alayhissalomning fazilatlari va odatlariga oid hadislarni muntazam ravishda to‘plib, aniq bir tartibga keltirib, yaxlit kitob shaklida tasnif qilgan. “Ash-Shamoili al-Muhammadiya” asari avvaldan islomning ulug‘ mutafakkir olimlar va tadqiqotchilar tomonidan turli sharh va tasniflar yozilgan.

Ulardan Abdurauf al-Munoviy al-Misriyning “Sharh ush-Shamoil”, Ali ibn Sulton al-Haraviy al-Qorining “Jama’ul-vasoil fi sharhi ash-Shamoil”, Sulaymon ibn Umar Mansur al-Jumalning “Al-Mavohib al-Muhammadiya bi sharhi ash-Shamoil at-Termiziy” kabi sharhlarni ko‘rsatish mumkin. Bu asarning uslubi aniq va soddaligi bilan ko‘pchilik asarlardan juda farqlanib turadi. Bu asar muhim tarixiy manba sifatida turkiy va fors tillariga ham tarjima qilingan. Imom Termiziyning ushbu asariga sharh yozgan mashhur olim al-Azharning shayxlaridan biri bo‘lgan Ibrohim al-Bojuriy: “Imom Termiziyning “As-Shamoil al-Muhammadiya” kitoblari o‘z bobida yakkayu yagona asardir. Tartibi va o‘z ichiga olgan mavzulari jihatidan yagona bo‘lib, nodir kitoblar jumlasidan hisoblanadi. Asar mazmunan ikki qismga bo‘lingan bo‘lib, uning birinchi qismiga mansub hadislarni Payg‘ambar alayhissalomning tashqi qiyofalari (suvrat)ga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra, Payg‘ambar novcha ham, past bo‘ylik ham bo‘lmay, balki o‘rta bo‘yli, peshonalarini keng, har doim yuzlaridan nur yog‘ilib turgandek bo‘lgan, ko‘zlarini katta-katta zot bo‘lganlar. Asarning ikkinchi qismida keltirilgan hadislarda esa Payg‘ambarimiz alayhissalomning ichki dunyolari va axloqiy fazilatlari bayon qilingan bo‘lib, ularda Muhammad alayhissalomning axloqiy jihatdan namunaviy, mukammal bir zot ekanliklari, muomalada u zotning hammaga bir xil bo‘lishliklari va samimiy ekanliklarini bilamiz.

Ushbu asar olim Said Mahmud Taroziy (vafoti 1992-milodiy yil) tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan bo‘lib arab alifbosi va krill yozuvida Toshkent shahrida bir necha marta nashr qilingan. Har bir mo‘min umri davomida payg‘ambar alayhissalomga o‘xshashni, u Zot kabi hayot kechirishni xohlaydi. Muhim emasdek, tuyuladigan kunlik yumushlarda ham u Zot bilan bir xil bo‘lishni chin qalbdan istaydi². Alloh taolo

¹ <https://mirarabmadrasa.uz/oz/news/558>

² <https://mirarab.uz/ruknlar/1950>

Muhammad payg‘ambarni haq din bilan mo‘minlarga rahnamo etib yubordi, chiroyli xulqlar, oliy fazilatlar bilan ziynatladi. Dunyo va oxirat saodatiga boshlaydigan eng to‘g‘ri yo‘l Rosuli Akram yo‘llaridir. Eng chiroyli odob u Zot alayxissalom odoblaridir. Shuning uchun Alloh taolo Rasulullohga ergashishni, u Zotni hurmatlashni mo‘minlar zimmasiga yuklagan. Sunnati mutaxxaraga ergashish uchun siyratni, jumladan, shamoili nabavviyani o‘rganish lozim. Bu ilmning fazilati ulug‘, ahamiyati katta. Buyuk muhaddis, Imom Termiziy “Shamoil nabaviyya” kitobi o‘z bobida tengsiz manbadir. Bu muborak kitob 56 bob, 415 hadisdan iborat. Unda bashariyatning eng afzal vakili, anbiyolar sayyidi Muhammad payg‘ambardan ulug‘ hislatlari, yuksak xulqlari, go‘zal muomalalari haqidagi rivoyatlar jamlangan³. Ushbu kitob Nabiy alayhissalom shamoillari borasida yozilgan eng ulug‘ va foydali manba hisoblanadi. Muallif ushbu kitobda mavzuning asl chashmasi, duru gavharlari va barcha qirralarini keltirib, chiroyli uslubda tartibga solgan va muxtasar holda jamlagan.

Bunga Ibn Kasir “Bidaya-van-nihoya” kitobida ishora qilib shunday degan: “Insonlar Rasululloh alayhissalomni shamoillari borasida qadimda ham, hozirda ham aynan shu mavzuda va bu mavzuga aloqador kitoblarni bitganlar. Mulla Ali Qori kitob haqida: “Nabiy alayhissalomning axloqlari va shamoillari borasida yozilgan kitoblarning eng go‘zali Termiziyning Rasululloh siyratlari borasida mukammal tarzda yozilgan jome muxtasar kitobdir. Bu kitobni o‘qigan kishi U janobning tashqi ko‘rinishini ko‘rgandek va har bobda U zotning sharafli xislatlarini tasavvur qiladi”, degan. Kitobning yaxshiliklari, foydalari va samaralari haqida ko‘p naqlar rivoyat qilingan. Shuningdek, oldin ham, keyinchalik ham ahli ilmlar tomonidan bu kitobga xizmat qilish maqsadida muxtasar, sharh, tahqiq qilish va nazmga solish kabi turli yo‘nalishlarda katta mehnatlar amalga oshirildi⁴.

“Shamoil” arabcha “shamila” so‘zining ko‘pligi bo‘lib, “fazilat”, “tabiat”, “xulqatvor” ma’nolarini anglatadi. Shamoilning ahamiyati shundaki, kishi unda Rasululloh sifatlarini ko‘radi, u Zotning Alloh bilan munosabatlari, oila a’zolari, sahabalari bilan muomalalari qanday bo‘lganini biladi, mahfiy va oshkora xolatlaridan, farovon va qiyin damlardagi ahvollaridan voqif bo‘ladi. Sufyon ibn Uyayna rahmatullohi alayh: Rasululloh alayhissalomdan eng katta mezondirlar. Hamma narsa u Zotning xulqlariga, siyratlariga, yo‘llariga qiyoslanadi. Agar biron ish, xolat yoki fikr u Zot sunnatlariga muvofiq bo‘lsa, haqdir. Bordi-yu zid kelsa, botildir. Ya’ni har bir so‘z, har bir amal, va xulq uchun sunnat o‘lchov hisoblanadi. Ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘rililigi sunnat tarozisida tortiladi. Kimning so‘zi hatti-xarakati, o‘zini tutishi sunnatga muvofiq bo‘lsa, u haq yo‘ldadir. Kimniki xilof bo‘lsa, uning yo‘li noto‘g‘ri. Rasulullohni tanigan sari u Zotga imon

³ Imom Abu Iso Muhammad Termiziy. Shamoili Muhammadiya. -Sharq: nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2022.-B.4

⁴ <https://sammuslim.uz/articles/actual/siyrat-ilmining-buyuk-ustozi>

mustahkamlanadi, muhabbat, hurmat ortadi. Chunki banda mahbubini ko‘p eslasa, ko‘z o‘ngida uning timsoli gavdalanadi, go‘zal siymosini, maqtalgan hislatlarini ko‘rgandek bo‘ladi va mahbubiga shavqi oshadi.

Xulosa, o‘rnida shuni aytmog‘imiz darkorki, Imom Termiziy biz uchun katta ilmiy me’ros sifatida qoldirgan bu asarini o‘rganmog‘imiz hamda u orqali nafaqat diniy balki falsafa, tarix kabi fanlarni chuqur o‘rganish uchun katta poydevor sifatida ko‘rilishini bilib olish mumkin. Alloh u kishidan va boshqa oldin o‘tgan diniy va dunyoviy bilimlar uchun o‘z hissalarini qo‘shgan buyuk olimu ulamolardan rozi bo‘lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imom Abu Iso Muhammad Termiziy. Shamoili Muhammadiya. -Sharq: nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2022. – 528 b.
2. <https://mirarabmadrasa.uz>
3. <https://mirarab.uz/>
4. <https://sammuslim.uz/>